

Sudlar faoliyati qanday tartibga solinadi



Sudlar faoliyati qanday tartibga solinadi

O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 28 iyuldagi "Sudlar to'g'risida"gi O'RQ-703-sonli Qonuni qabul qilindi. Qonun 2021 yil 29 iyul kuni rasmiy e'lon qilindi va shu kundan kuchga kirdi.

Mazkur qonunga ko'ra, barcha sudlarda ishlar ochiq sud majlislarida ko'riladi. Ishlarni yopiq sud majlisida ko'rib chiqishga faqat qonunda belgilangan hollarda yo'l qo'yiladi. Sud majlisi zalida hozir bo'lgan shaxslar, ommaviy axborot vositalari vakillari sud majlisi zalida qonunda belgilangan tartibda fotosuratga olishi, video va audio yozuvni amalga oshirishi mumkin.

O'zbekistonda sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi.

Odil sudlovni amalga oshirishda har bir kishiga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi.

Hech kim sud qaroriga asoslanmagan holda qamoqqa olinishi mumkin emas.

Shu bilan birga, Oliy sud quyi sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

35 yoshdan kichik bo'lmagan, fuqarolarning yashash yoki ish joyidagi yig'ilishida ochiq ovoz berish yo'li bilan ikki yarim yil muddatga saylangan O'zbekiston fuqarosi xalq maslahatchisi bo'lishi mumkinligi belgilandi.

Sudya birinchi marta 5 yillik muddatga, navbatdagi 10 yillik muddatga va lavozimda bo'lishning muddatsiz davriga belgilangan tartibda saylanadi yoki tayinlanadi.

Oliy sud sudyasi lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshi 70 yoshni, boshqa sudlar sudyalari uchun - 65 yoshni tashkil etadi.

Uy-joyga muhtoj bo'lgan sudya mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda sud joylashgan yerda xizmat turar joyi bilan ta'minlanadi.

Sudya unga doimiy yashash uchun belgilangan tartibda turar joy berilgunga qadar turar joy arendasi, ijarasi (ikkilamchi ijarasi) bilan bog'liq xarajatlari kompensatsiya qilinishi huquqiga ega.

Vakolatlari muddati tugagan sudyalarning o'rtacha oylik ish haqi ularni yangi vakolatlar muddatiga qayta saylash yoki qayta tayinlash to'g'risidagi masala hal qilinayotgan davrda yoxud boshqa ish berilgunga qadar, lekin ko'pi bilan uch oygacha

saqlab qolinadi.

Sudyalarga ularning vakolatlari muddati tugaganidan keyin ular sudyalik lavozimiga saylanishga yoki tayinlanishga qadar egallab turgan avvalgi ishi (lavozimi) beriladi, bunday ish (lavozim) mavjud bo'lmaganda esa avvalgisiga teng boshqa ish (lavozim) beriladi.